

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллаҳжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Anora Zayniddinova Togʻaeva,
Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi
Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi,
tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA

For citation: Anora Z. Togaeva. ON TRADE RELATIONS BETWEEN TURKESTAN AND THE RUSSIAN EMPIRE IN HISTORICAL LITERATURE. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807236>

ANNOTATSIYA

Turkiston oʻlkasida azaldan tashqi savdo aloqalari izchil olib borilgan va bu munosabatlar oʻzaro teng huquqlilikka asoslangan. Ammo mintaqada Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tizimining oʻrnatilishi bilan savdo munosabatlaridagi erkinlikka barham berildi. Endilikda oʻlkaning tashqi savdo aloqalari imperiya tartib-qoidalariga boʻysundirildi. Asosan Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalari olib borish yoʻlga qoʻyildi. Turkistonning boshqa mamlakatlar bilan savdo munosabatlari Rossiya imperiyasi vositachiligida amalga oshirildi. Ushbu jarayonlarni yoritishda rus tilidagi tarixiy adabiyotlarning oʻrni katta boʻlib, maqolada ularning asosiy mazmuni va mohiyati talqin etildi.

Kalit soʻzlar: Turkiston, Rossiya imperiyasi, savdo aloqalari, karvon, suv yoʻllari, temir yoʻllar, paxta, L. Kostenko, V.Ogloblin.

Анора Зайниддиновна Тогаева,
ведущий научный сотрудник
Института истории Академии наук Узбекистана,
кандидат исторических наук, старший научный сотрудник

О ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ ТУРКЕСТАНА С РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ В ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

АННОТАЦИЯ

В Туркестанском регионе с незапамятных времен существовали устойчивые внешнеторговые отношения, основанные на взаимном равенстве. Однако с установлением колониальной системы Российской империи в регионе свобода торговых отношений была упразднена и внешнеторговые отношения страны были подчинены имперским правилам. Торговые связи устанавливались преимущественно с Российской империей. Торговые отношения Туркестана с другими странами осуществлялись при посредничестве Российской империи. Историческая литература на русском языке имеет большое значение в освещении

этих процессов. В статье анализируется основное содержание и сущность исторической литературы.

Ключевые слова: Туркестан, Российская империя, торговые отношения, караван, водные пути, железные дороги, хлопок, Л. Костенко, В. Оглоблин.

Anora Z. Togaeva,

Leading Researcher

at the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan,

PhD in History, Senior Researcher

ON TRADE RELATIONS BETWEEN TURKESTAN AND THE RUSSIAN EMPIRE IN HISTORICAL LITERATURE

ABSTRACT

Since time immemorial, the Turkestan region has maintained stable foreign trade relations based on mutual equality. However, with the establishment of the Russian Empire's colonial system in the region, free trade relations were abolished, and the country's foreign trade relations were subject to imperial regulations. Trade relations were established primarily with the Russian Empire. Turkestan's trade relations with other countries were mediated by the Russian Empire. Historical literature in Russian plays a significant role in elucidating these processes. This article analyzes the main content and essence of historical literature.

Index Terms: Turkestan, Russian Empire, trade relations, caravan, waterways, railways, cotton, L. Kostenko, V. Ogloblin.

1. Dolzarbligi:

Avvalo, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixini yoritishda tarixiy voqeliklarga milliy davlatchiligimiz nuqtai nazaridan baho berish muhimligini aytib o'tish joiz. So'z savdo aloqalari xususida borar ekan, imperiya va sovet davri tadqiqotlarida ushbu munosabatlar Turkiston xalqlari uchun manfaatli bo'lganligi ta'kidlanadi. Ammo aslida Turkiston mintaqasida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tizimining o'rnatilishi ilgari har ikki o'rtada teng huquqlilik asosida shakllangan savdo aloqalariga barham berib, metropoliya va unga qaram bo'lgan hudud o'rtasidagi munosabatlar paydo bo'lishiga olib keldi. Turkiston va Rossiya imperiyasi markaziy hududlari o'rtasidagi savdo aloqalarining kuchayib borishi o'lkaning Rossiya imperiyasi iqtisodiy tizimiga tobora kengroq tortilishiga sabab bo'lib, ushbu jarayonda Turkistonning mustamlakachilik asoratlariga tushishi aks etadi. Tashqi savdoning mustamlakachilik mohiyati Rossiya imperiyasining markaziy hududlariga o'lkadan asosan xom ashyo mahsulotlarining olib ketilishi va Turkistonga sanoat mahsulotlarining olib kelinishida namoyon bo'ldi. Aynan shu davrdan mintaqa iqtisodiyoti "xomashyochilikka" yo'naltirildi.

2. Metodlar:

Ko'p turdagi birlamchi manbalarga tayanib o'zaro savdo munosabatlari tahlili asosida Turkistonning Rossiya imperiyasi xomashyo manbai hamda Rossiyaning tayyor mahsulotlar bozoriga aylanishi jarayonini yaqqol ko'rish mumkin. Ular orasida rus tilidagi tarixiy adabiyotlar o'ziga xos o'rin tutib, mustamlaka Turkistonning savdo-sotiq tarixi, xususan Rossiya bilan savdo aloqalari bo'yicha ko'plab ma'lumotlarni jamlagan birlamchi manbalardan hisoblanadi. Ushbu asarlarning aksariyati o'lka boshqaruvi bilan bog'liq tarzda jarayonlarning bevosita guvohi bo'lgan yoki kasb-kori jihatidan Turkistonni yaxshi bilgan mualliflar tomonidan yaratilgan. Mazkur tadqiqotlarda o'zaro savdo masalasiga imperiya savdo siyosati manfaatlari nuqtai nazaridan yondashib baho berilgan, bu esa tadqiqotchidan alohida sinchkovlik va hushyorlikni talab etadi. Shunga qaramay, mazkur asarlardagi tahlillar, statistika ma'lumotlari va dalillardan savdo tarixini yoritishda foydalanish ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlab o'tish joizki, Turkistonning savdo aloqalari ko'plab rus tilidagi tarixiy adabiyotlarda tadqiq etilgan. Ular orasida aynan savdo munosabatlari aks etgan tadqiqotlar ajratib olindi va tahlil etildi.

Turkiston bilan Rossiya imperiyasi markaziy hududlari o'rtasidagi savdo aloqalarini o'rganishga oid manbalarni tizimlashtirish, ularning o'ziga xosligini ko'rsatib berish hamda ilmiy ahamiyatini tushuntirish maqsadida tadqiqotni amalga oshirishda tizimlashtirish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasiga harbiy yurishlari boshlangan davrda ikki o'rtadagi savdo aloqalarini o'rgangan N. Nebolsinning ma'lum qilishicha, 19-yuzyillik o'rtalaridan boshlab vaziyat birmuncha o'zgargan. Karvon savdosidan manfaatdor bo'lgan Rossiya imperiyasi ta'siri va himoyasi ostida karvonlar yuradigan sahrolarda osoyishtalik qaror topgan [4: 43]. Buning natijasida Turkistondan Rossiyaga va u yerdan xonliklarga qatnaydigan karvonlar karvonboshisiz, savdogarlarning nisbatan kichik uyushmasi sifatida tuziladigan bo'lgan. Biroq Amudaryoning janubiy tomonida joylashgan, ya'ni, janubiy yo'nalishdagi davlatlarda vaziyat o'zgarmay qolavergan. Negaki, ushbu yo'llarda uchraydigan talonchi ko'chmanchilar hamda karvonlardan zakot solig'i undirib olishga odatlangan mustaqil hukmdorlar tazyiqidan himoyalanih maqsadida karvondagilar ilgarigidek qurollangan holda, karvonboshi etakchiligida yurishga majbur edilar [3: 280].

N. Nebolsinning qayd etishicha, Toshkentdan Rossiya hududlariga bir necha yo'nalishda karvonlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Xususan, Troisk va Petropavlovskka boradigan karvon yo'llari qadimiy bo'lib, keyinchalik ularning safiga Orenburg yo'nalishi ham qo'shilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ilk bor 1738 yilda Toshkentdan Orenburgga tuya karvoni jo'natilgan [4: 101].

Toshkent bilan Orenburg oralig'idagi karvon yo'lining uzunligi 1900 verstdan iborat bo'lib, bu yo'lda tuya uchun 14-25 rub. atrofida haq to'langan. Odatda bir yilda Toshkentdan Orenburgga ikki yoki uch marta savdo karvonlari jo'natilgan. Ushbu yo'l o'lkada 1870-yillarda Rossiya imperiyasi hukumatining tashabbusi bilan barpo etilgan pochta trakti bilan aynan bir yo'nalishda bo'lgan. Toshkentdan Troiskkacha esa bir yilda uch-to'rt marta savdo karvonlari jo'natilgan. Ushbu karvonlar 30-35, ba'zan esa 40 kun yo'l bosishiga to'g'ri kelgan. Ular asosan Nijegorod yarmarkasida qatnashish uchun yo'lga otlanganlar. Toshkent-Troisk karvon yo'li masofasi taxminan 1500 verst uzunlikda bo'lib, bu yo'lda tuya uchun beriladigan haq 11-17 rub. ni tashkil etgan [4: 101].

Turkiston bozorlarining o'ziga xosligi haqida so'z yuritir ekan, A. Teterevnikov bozor bir vaqtning o'zida juda katta ustaxona ekanligini, hunarmandlarning katta qismi ishlab chiqarish va savdo bilan band bo'lishini qayd etgan [8: 21]. Shuningdek, Toshkentda jami 4 548 ta do'kon mavjud ekanligi haqida ma'lumot berib o'tgan [8: 39].

A. Terentev Turkistonning Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalariga oid statistik ma'lumotlarni keltirgan. Unga ko'ra, 19-yuzyillikning 50-60-yillariga kelib, o'lkada Rossiya imperiyasining mustamlakachilik tizimi o'rnatilmasidan ilgari ham o'zaro savdo aloqalari rivojlanib borgan. 1850 yilgacha Rossiyaga Turkistondan yiliga 800 ming rubl qiymatga teng mahsulot tashib ketilgan, o'lkaga esa Rossiyadan 600 ming rubl mahsulot keltirilgan. Keyingi yillarda esa har ikkala o'rtadagi savdo aylanmasi yanada oshib borgan [7: 272]:

Yillar	Turkistondan Rossiyaga	Rossiyadan Turkistonga
1857	6.047.547 rub.	3.838.742 rub.
1867	12.850.405 rub.	16.634.306 rub. [6: 76]

Demak, o'n yil oralig'ida ikki o'rtadagi o'zaro savdo aylanmasi deyarli uch baravarga oshgan.

L. Kostenkoning mustamlakachilikning ilk yillarida yozilgan asari Rossiya imperiyasi va o'zbek xonliklari hamda istilo etilgan hududlar o'rtasidagi savdo aloqalariga oid eng yirik tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Muallifning fikricha, mustamlakachilik davrida temir yo'llar qurilgani bilan karvon yo'llari orqali savdo aloqalari ham davom etib turgan. Bu davrga kelib, karvonlar tuzilishiga ham bir qator yangiliklar kiritishga harakat qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, Petropavlovskdan Toshkentga jo'natilgan savdo karvonlarida qiziq tajriba o'tkazilgan. Savdogarlarning yuklari aravalarga ortilgan va ular tuyalarga biriktirilgan. Bu yo'l bilan odatda

o'rtacha 16 pud yuk ko'tara oladigan tuyalar 40-50 pudgacha yuk ko'tara olishi aniqlangan [3:282]. Petropavlovskka yiliga Toshkentdan ikki marta karvon jo'natilgan. Petropavlovskdan Toshkentga esa bir yilda uch marta savdo karvonlari kelib turgan.

L. Kostenkoning asari orqali 19-yuzyillikka kelib, yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sababli Turkistonning savdo yo'llari, jumladan, karvon, suv va boshqa aloqa yo'llarining tarkibiy tuzilishi, yo'nalishida, shuningdek, olib borilayotgan savdoning xususiyatida ro'y bergan qator o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Unga ko'ra, Turkiston o'lkasida tabiiy suv yo'llarining chegaralanganligi, o'lkaning yirik suv havzalari bilan bevosita bog'lanmaganligi, cho'l va sahrolarning nisbatan ko'p uchrashi, umuman, uning geografik tuzilishi bu erda aloqa yo'llari sifatida karvon yo'llarining etakchi o'rin tutishiga asosiy sabab bo'lgan.

Muallifning fikricha, Rossiya imperiyasi hukumati savdo yo'llarini takomillashtirish va shu orqali Rossiyaning Xitoy, Eron, Xindiston kabi davlatlar bilan olib boradigan savdo aloqalarida Turkistondan tranzit sifatida foydalanishni ko'zda tutgan edi [3:328, 348]. Turkistonning eng muhim va son jihatidan ko'pchilik karvon yo'llari Rossiyaga olib boradigan yo'llar bo'lib, Rossiya bilan Turkiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlari, oraliq masofaning uzoqligi, yo'lining qiyinchiliklariga qaramasdan, tobora rivojlana borgan. Buxoro, Xiva va Toshkentdan Moskvagacha 3-3,5 oy davomida karvon va suv yo'llari orqali etib borilgan.

Toshkentdan Petropavlovskka boradigan karvon yo'llari Sibir yo'nalishidagi yo'llar bo'lib, Petropavlovsk, Semipalatinsk, Omsk kabi savdo markazlari va yo'llari Turkistonni Sibir bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu yo'llar orqali savdogarlar Irbit yarmarkasiga mahsulot olib borib, savdo ishlarida qatnashgan. Biroq keyingi yillarga kelib, Turkistonning Sibir bilan savdo aloqalari birmuncha susaygan. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi natijasida Sibir yo'nalishidagi Petropavlovsk, Semipalatinsk kabi savdo markazlari o'zining ilgarigi ahamiyati va vositachilik rolini yo'qota borgan. 1868 yilda rus hukumatining maxsus qaroriga muvofiq, Petropavlovsk va Semipalatinsk bojxonalari tugatilgan. Shuningdek, Orenburg va Troisk bojxonalari ham yopilgan. Bu bilan Rossiyaning Turkiston bilan savdo aloqalariga keng yo'l ochilgan. Shu yilning 22 aprelida Rossiya hukumati mamlakat savdosini qo'llab-quvvatlash maqsadida hamda rus-ingliz raqobatida etakchilik mavqeini egallash niyatida Turkiston hududiga ingliz va umuman Yevropa mahsulotlarini olib kiritilishini taqiqlash to'g'risida qaror qabul qildi [3: 265].

Ma'lumki, Turkistonning suv yo'llari ham o'lkaning ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarida muhim o'rinni egallagan. L. Kostenko Turkistonning suv yo'llari haqidagi ma'lumotlarni ham keltirgan. Uning ma'lumotiga ko'ra, o'lkaning iqtisodiy aloqalari Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i, Orol dengizi, Sirdaryo va Amudaryolar kabi suv havzalari orqali amalga oshirilgan. Sirdaryo va Amudaryo azaldan o'lkaning ichki va tashqi savdo munosabatlarida qo'l kelib kelgan bo'lsa, Kaspiy dengizi orqali Turkistonning muhim tashqi savdo-iqtisodiy va siyosiy-diplomatik munosabatlari olib borilgan. XIX asrning o'rtalariga kelib, Turkistonning suv yo'llarida ham Rossiya imperiyasining ta'siri ostida bir qator o'zgarishlar yuzaga kelgan.

Muallifning qayd etishicha, Orol dengizi eng kichik, ammo eng notinch dengizlar sirasiga kirgan. Bu erda orollar ko'p sonli bo'lib, ulardan eng yirigi 200 kv. verst uzunlikka ega bo'lgan Nikolay oroli hisoblanadi. Mustamlakachilar Orol dengizi o'zining geografik tuzilishi tufayli kemachilikning rivojlanishi uchun unchalik qulay imkoniyatga ega emas, degan xulosaga kelganlar. Rossiya imperiyasi ilk bor Orol dengiziga 1847 yilda Raim istehkomi yonida ikkita ikki machtali kemalarini ishga tushirgan edi. Ulardan biri "Nikolay" deb nomlangan harbiy kema, ikkinchisi esa, "Mixail" deb nomlangan xususiy kema edi. Birinchisi dengizda tadqiqot ishlarini olib borishga mo'ljallangan bo'lib, ikkinchisining maqsadi baliq ovlashdan iborat edi. "Mixail" kemasining faoliyati birinchi yilning o'zidayoq to'xtab qolgan, "Nikolay" kemasi yana ikki yil ichida, 1848-1849 yillarda ham dengizni o'rganish maqsadida tadqiqot ishlarini olib borishga muvaffaq bo'lgan edi. Shu yillar ichida Orenburgdan keltirilgan "Konstantin" kemasi ham ikki yildan so'ng o'z faoliyatini to'xtatgan. Keyingi yillarda paroxodlar xizmatidan ba'zi-ba'zidagina Nikolay orolidan ohak tashish maqsadida foydalanilgan, xolos. Shuningdek, "Perovskiy" paroxodi 1858 va 1859 yillarda, Xivaga missiya uyushtirilgan paytda Qo'ng'irotgacha suzib borgan [3:294].

L. Kostenkoning ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya imperiyasi tadqiqotchilari Amudaryo va Sirdaryoning kemachilikni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarini Orol dengiziga nisbatan yuqoriroq baholab, mazkur sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar. Imperiya hukumatining Sirdaryoda kemachilikni yo'lga qo'yish borasidagi xatti-harakatlari 1853 yilda boshlangan. Shu yili suvga "Perovskiy" va "Obruchev" kemalari tushirilgan. Biroq bu kemalarning birinchisi o'zining og'irligi tufayli suvga juda chuqur botganligi sababli, ikkinchisi tezoqar daryoning shitobiga kuchsizlik qilganligi boisidan, yaroqsiz deb topildi. 1862 yilda "Orol" va "Sirdaryo" nomli yangi kemalar suvga tushirilgan. Bu gal ham amalga oshirilgan choralar kutilgan natijani bermay, mazkur kemalar yaroqsiz bo'lib chiqqan. Oqibatda Belgiyaning Ko'keril jamiyatiga Sirdaryoga oqimiga mos kema yasab berish taklif qilingan va nihoyat, buyurtma asosida bunyod qilingan "Samarqand" kemasi 1868 yilda ishga tushirilgan. 1870-yillarga kelib, Amudaryoda 200 ga yaqin kichik kemalar faoliyat ko'rsatgan va ular 20 tonna yuk ko'tara olishi yoki 150 tagacha kishini sig'dirishi mumkin edi [3:294].

Sirdaryo bo'ylarida kemalar uchun yoqilg'i bo'lgan saksovdan keng foydalanilgan. Biroq bunday imkoniyat Amudaryoda yo'q edi va bu erda yoqilg'i sifatida ko'mirdan foydalanilar edi. Baliqning ko'pligi jihatidan esa, Amudaryo ustunlik qilar edi. Shu tariqa, Rossiya imperiyasi hukumati Turkistondagi suv yo'llarini o'rganish va ularni rivojlantirishga harakat qildi va turli tadbirlarni qo'lladi.

Turkiston mintaqasi va Rossiya imperiyasi o'rtasida o'zaro savdo masalasi chuqur tahlil etilgan tadqiqotlardan biri V. Ogloblin tomonidan amalga oshirilgan. U Turkiston sanoati va savdosiga bag'ishlangan asarida o'zining Turkistonga 1900 yilda qilgan ilk sayohatidan keyin, 1913 yilning bahorida yana o'lkaga kelganini, bu esa so'nggi 10-11 yil davomida Turkistonda savdo va sanoat qanday rivojlanganligini aniqlash imkonini berganini qayd etadi. V. Ogloblinning fikricha, Turkiston mintaqasini zabt etar ekan, rus jamiyati o'lkani boy tabiatidan foydalanishga juda katta umid qilgan edi. Shu ma'noda muallifda o'tgan yillarning qiyosiy tahlili katta qiziqish uyg'otgan va o'z asarida buni amalga oshirishga harakat qilgan [5:3].

V. Ogloblin eng avvalo Turkistondan olib ketiladigan paxta va paxta mahsulotlari hajmining oshib borganligi ko'rsatib berilgan. Statistik dalillarni tahlil qilar ekan, V. Ogloblin Turkistonda paxta ekiladigan er maydonlari hajmi 1887 yildagi 61 ming desyatinadan 1912 yilda 430 ming desyatinaga etganligini, ya'ni 7 baravarga oshganligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, shu yillar oralig'ida etishtiriladigan paxta hajmi keskin oshib, 1887 yildagi 10 ming puddan 1912 yilda 14 mln. pudga etgan, ya'ni 1400 baravarga oshgan [5:4]. Bu esa Rossiya imperiyasining boshqa mamlakatlardan oladigan paxtasi hajmi keskin kamayishiga hamda va imperiyaning millionlab mablag'lari tejallishiga olib kelganligi boshqa manbalarda ham qayd etilgan.

Nafaqat paxta, balki undan olinadigan mahsulotlar ham Rossiyaga tashib ketilgan. Turkistonda ishlab chiqariladigan paxta yog'ining 25 foizigina o'lka ehtiyojlari uchun ishlatilgan, qolgani esa olib ketilgan. Ushbu ma'lumotlarni arxiv manbalari ham tasdiqlaydi. 1900 yilda O'rta Osiyo temir yo'li stansiyalaridan 59 ming pud paxta yog'i jo'natilgan, ulardan 6 ming pudi mahalliy aholi iste'moliga ajratilgan bo'lsa, qolgan 53 ming pudi Rossiya markaziy hududlariga yuborilgan [10]. Qo'qon birja komitetining ma'lumotlariga ko'ra, 1905 yilda Turkistondan 388 ming pudga yaqin yog' olib ketilgan bo'lsa, 1911 yilga kelib uning hajmi 1 772 ming puddan oshgan. Bir pud chigitdan 27 funt paxta yog'i va 12 funt tola olingan [5:34]. Paxta yog'ining katta qismi Odessa, Batumi, Libava, Riga orqali G'arbiy Yevropaga olib ketilgan. Undan, jumladan, Marsel sovuni ham tayyorlangan [5:43].

Turkistondan qorako'l olib ketish kuchayib borgan. Ushbu mahsulotga talab oshib borishi sababli Buxoroda qorako'l teri etishtirish ko'payib, yiliga 2-3 mlanni tashkil etdi. Buxoroning 50-55 mln. rublga teng savdo aylanmasidan 17-18 mln. rubli qorako'l savdosiga to'g'ri kelar edi [11: 454].

V. Ogloblinning qayd etishicha, Turkiston aholisi guruchni qiyinchilik bilan etishtirar edi, chunki sholi etishtirish uzoq va kuchli sug'orishni talab qilganligi aholi orasida bezgak kasali keng tarqalishiga olib kelgan. Shunga qaramay, birgina Sirdaryo temir yo'l stansiyasi yaqinidagi Chinozdan Rossiyaning Yevropa qismiga yiliga 1,5 mln pud guruch jo'natilar edi [5:20].

V. Ogloblin Turkistondan Rossiyaga olib ketiladigan, u erdan esa dunyoning boshqa mamlakatlariga jo'natiladigan xilma-xil mahsulotlar nomi va hajmiga oid ma'lumotlarni keltiradi. Uning ma'lumotiga ko'ra, boshqa joylarni hisobga olmaganda, faqat Kushka atrofidan har yili 25 vagon xandon pista olib ketilgan. Farg'ona viloyatining o'zidan millionlab rubl qiymatida yong'oq, Toshkent atrofidagi temir yo'l bekatlaridan birgina Angliyaning o'ziga millionlab pud quritilgan olma jo'natilgan. Shuningdek, Turkistondan London va Shveysariyaga uzum yuborilgan [5:43-44].

Turkistondan darmana (santonin – shifobaxsh giyoh) va uning urug'i ham chetga jo'natilgan. Darmana asosan 1884 yilda Chimkentda bunyod etilgan Savikov zavodida olingan. Zavod yiliga 400-15 ming pud atrofida darmana ishlab chiqargan va u Rossiyaning Yevropa qismi hamda Germaniyaga jo'natilgan [5:38].

Muallifning fikriga ko'ra, Turkistonning ichki, tashqi va tranzit savdosi hajmi ancha ko'paydi, ammo bu o'lka aholisi uchun hamisha ham foydali bo'lmadi. Masalan, Turkistonda paxta hosili yaxshi bo'lmagan yillarda aholi don mahsulotlari va em-xashakni qimmat narxlarda sotib olishga majbur qilindi. Ushbu mablag'ning katta qismi Rossiyaning Yevropa qismiga olib ketildi, bu esa bevosita Turkiston sarmoyasining Rossiyaga chiqib ketishiga sabab bo'ldi. Ammo Turkistonda paxta hosili yaxshi bo'lgan kezlarda ham shunday holat kuzatilgan. Masalan, o'lkada 1911/1912 yillarda paxtadan yaxshi hosil olingan, biroq uning narxi past bo'lgan. Rossiyadan olib kelinadigan bug'doyning esa, u erdagi hosilsizlik tufayli, narxi ko'tarilgan. Shu yili olib kirilgan 15 mln. pud bug'doy uchun Turkiston Rossiyaga 30 mln rublga teng mablag' to'lagan. Ayni paytda Toshkentda bir pud 2-navli un 1 rub 80 kop.dan 2 rub. 20 kop.gacha sotilgan [5:40]. Aslida g'alla taqchilligi va chetdan olib kelinadigan don-dunga qaramlik o'lka xalqlari uchun og'ir oqibatlarni keltirib chiqarganligi ilgari ham kuzatilgan. Xususan, 1892 va 1893 yillarda katta daromad ilinjida Farg'ona viloyati va Toshkent uezdlarining ko'plab g'alla maydonlariga paxta ekilganligi oqibatida g'alla taqchilligi yuzaga kelib, uning narxi misli ko'rilmagan darajada oshib ketgan edi. Oddiy unning bir pudi 2 rubldan sotilgan, Marg'ilonda oddiy undan pishirilgan nonning bir funti [12] 10 kopeekgacha ko'tarilib ketgan [9].

Tarixiy adabiyotlarda qayd etilishicha, Rossiyaga olib ketiladigan baliq hajmi ham tobora oshib borgan. Toshkent temir yo'li boshqaruvi amaldorlaridan biri bo'lib ishlagan N. Verxovskiy temir yo'l qurilishi Turkistondan baliq va baliq mahsulotlarining katta miqdorda Rossiyaga olib ketilishida muhim rol o'ynaganini ta'kidlagan. Xususan, Orol bekatinig Toshkent-Orenburg temir yo'li yaqinida joylashganligi bunday imkoniyatni bergan. Temir yo'l qurib, ishga tushirilishidan ilgari baliq mahsulotlari oz miqdorda karvonlar yo'llari orqali Orenburg va boshqa yaqin shaharlarga olib borib sotilar edi. Temir yo'li ishga tushirilishi va baliqni qisqa fursatlarda imperiyaning markaziy rayonlariga etkazib berish imkoniyatining paydo bo'lishi natijasida baliq mahsulotlari savdo munosabatlariga keng tortilgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, temir yo'l qurib, ishga tushirilganidan so'ng, mahalliy tadbirkorlar bilan bir qatorda, rus tadbirkorlari ham baliqchilik bilan shug'ullana boshlaganlar va yirik baliqchilik xo'jaliklari vujudga kelgan. Dastlab baliq va baliq mahsulotlari tuyalarda temir yo'l stansiyalarigacha tashib keltirilgan edi. Keyinchalik, ularga bo'lgan talabning kuchayishi munosabati bilan bu sohada rivojlanish kuzatilib, bu ishda ot yoki tuyaga birlashtirilgan aravalar xizmatidan foydalanilgan [2:24:25]. V. Ogloblinning ma'lumotlariga ko'ra, Orol dengizidan Rossiyaning Yevropa qismiga yiliga 468 ming pud turli xil baliq tutib ketilgan. Bulardan tashqari ikra ham Orol dengizi temir yo'l stansiyasidan Samara, Penza, Ryazan, Moskva kabi hududlarga olib ketilgan [5:47].

V. Ogloblinning yuqorida tahlil etilgan asari istilodan keyin Turkistonning Rossiya imperiyasi markaziy hududlari bilan savdo aloqalari jadal rivojlanib borganligini, bunda asosan o'lkadan xomashyo chiqarish ustun bo'lganligidan dalolat beradi.

O'z davrida xorij tadqiqotchilari ham o'zaro savdo hajmi, savdo mollari, savdo geografiyasiga oid ma'lumotlarni va bunga nisbatan o'z munosabatlarini bildirib o'tganlar. Masalan, ingliz olimi Jorj Dobson temir yo'l ishga tushirilishi bilan o'zaro savdo hajmi yildan-yilga oshib borganligini, bu holat esa, o'z navbatida, temir yo'l tarmoqlarini kengaytirishni rag'batlantirganini ta'kidlagan. Masalan, Rossiya imperiyasiga mintaqadan 1889 yilda jo'natilgan paxta, ipak, jun, qo'y terisi, quruq mevalar va don hajmi 1888 yilga nisbatan 127%ga oshgan.

Shuningdek, ushbu yillarda mintaqa hududiga rus shakari va sanoat mahsulotlari olib kirilishi 94 %ga ko'paygan. Shu ma'noda xorijlik olim Turkistonda temir yo'l qurilishi Rossiya imperiyasi uchun "moliyaviy muvaffaqiyatli loyiha" ekanligini qayd etib o'tgan [1:417].

J. Dobson Kaspiyorti temir yo'li tez orada o'z xarajatlarini qoplay boshlashi haqdagi "bashoratni" temir yo'l qurilishiga boshchilik qilgan general-leytenant M. Annenkov ham aytib o'tganini ta'kidlaydi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, temir yo'l nafaqat o'z xarajatlarini qoplashi, balki foyda ham keltirishi kerak edi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1889 yilda temir yo'lning umumiy savdo aylanmasi hajmi 350 674 tonnani tashkil etgan [1:416-417].

Turkistondan Rossiya imperiyasi, Eron, Fransiya jo'natiladigan mahsulotlardan yana biri gilamlar bo'lib, ular asosan Marv vohasi, qisman Pandada tayyorlangan. Ushbu gilamlarga talab katta bo'lganligi sababli ularning narxi oshib borgan. Bir yil davomida yuqorida nomlari keltirilgan hududlarga 320 ming rubl qiymatga teng 4 ming gilam yuborilgan [1:324].

4.Xulosa:

Ko'rib o'tilganidek, mustamlakachilik davrida Rossiya imperiyasi markaziy hududlari bilan Turkiston o'lkasi o'rtasidagi savdo aloqalari tobora kuchayib bordi. Biroq bu davrda o'zaro savdoning o'ziga xos jihatlari mavjud edi. Jumladan, savdoning xususiyatlaridan biri shu ediki, mintaqadagi ichki savdo ma'lum darajada biqirligicha qolgani holda, ayrim hududlarning to'g'ridan-to'g'ri Rossiya markazi bilan aloqalari yo'lga qo'yildi. Har bir uezd yoki shahardan tovarlar to'g'ri vagonlarga yuklanib, Rossiyaga olib ketildi. Bu ichki rayonlar o'rtasidagi o'zaro savdoning etarlicha rivojlanmasligiga sabab bo'ldi.

Bu davrga kelib savdo aloqalari imperiya qonunchiligi asosida yo'lga qo'yildi va mustamlaka tartiblari o'rnatildi. O'zaro savdo aloqalarida narx-navoning oshib borishi, imperiya hukumati tomonidan uni nazorat qilishga intilish va metropoliya manfaatlarini ustun qo'yish kabi holatlar bu davrning yana bir xususiyati edi. Savdo sohasida ro'y bergan barcha o'zgarishlar imperiya manfaatlarini uchun yo'naltirildi. O'zaro savdo hajmining bir necha baravar oshishi esa na Turkiston o'lkasi iqtisodiyotini yuksaltirishga, na xalq ahvolini yaxshilashga xizmat qildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Georg Dobson. Russia's railway advance into Central Asia. Notes of a journey from St. Petersburg to Samarkand. London. W. H. ALLEN & CO., 13, Waterloo place and at Calcutta, 1890.
2. Верховской Н. Туркестан в районе Ташкентской железной дороги и грузы этой дороги. СПб. 1910.
3. Костенко Л. Средняя Азия и водворение в ней русской гражданственности. С.-Петербург. 1871.
4. Неболсин Н. Очерки торговли России со Средней Азией. Санкт-Петербург. 1856.
5. Оглоблин В. Промышленность и торговля Туркестана. Из путевых заметок. Москва. 1914.
6. Терентев М. Россия и Англия в борьбе за рынки. Санкт-Петербург. 1876.
7. Терентев М. Россия и Англия в Средней Азии. Санкт-Петербург. 1875.
8. Тетеревников А. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб. 1867.
9. Ўз МА. И-1 жамфарма, 11-рўйхат, 1308-йиғмажилд, 4-варак.
10. Ўз МА. И-1 жамфарма, 18-рўйхат, 55-йиғмажилд, 71-варакнинг орқаси.
11. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. IV жилд. 1860-1917 йиллар. Тошкент: "Navro'z" нашриёти, 2014.
12. 1 funt – 409, 512 grammga teng og'irlik o'lchovi.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000